

TALABALARNING INTERNETDAN FOYDALANISH ODATLARI VA AKADEMIK NATIJALARGA TA’SIRI

Yo‘ldoshev Samandar Bahodir o‘g‘li

Namangan Davlat Texnika Universiteti Muxandislik-axborot texnologiyalari fakulteti

“Axborot Tizimlari va Texnologiyalari” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Telefon: +998 99 939 06 44

E-mail: yoldoshevs626@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada talabalarining internetdan foydalanish odatlari va ularning akademik natijalariga ta'siri tahlil qilinadi. Internetning ta'lim jarayonidagi o'rni, uning samarali va samarasiz foydalanish holatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, internetdan foydalanish madaniyati va uning talabalarning bilim olish jarayoniga ta'siri haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Internet, talabalar, akademik natijalar, ta'lim texnologiyalari, internetdan foydalanish odatlari, masofaviy ta'lim, internet madaniyati.*

Abstract: *This article analyzes students' internet usage habits and their impact on academic performance. The role of the internet in the educational process, as well as its effective and ineffective usage, is examined. Additionally, the article discusses internet usage culture and its influence on students' learning processes.*

Keywords: *Internet, students, academic performance, educational technologies, internet usage habits, distance learning, internet culture.*

Аннотация: *В данной статье анализируются привычки студентов в использовании интернета и их влияние на академические результаты. Рассматривается роль интернета в образовательном процессе, а также его эффективное и неэффективное использование. Кроме того, обсуждается культура использования интернета и её влияние на процесс обучения студентов.*

Ключевые слова: *Интернет, студенты, академические результаты, образовательные технологии, привычки использования интернета, дистанционное обучение, культура интернета.*

Kirish

Zamonaviy jamiyatda internet texnologiyalari ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Talabalar internet orqali ma'lumot izlash, masofaviy ta'lim olish va ilmiy tadqiqotlar olib borishda foydalanadilar. Biroq, internetdan foydalanish odatlari talabalarning akademik natijalariga turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin. Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy shunday degan: *“Ilm olish yo‘lida inson har bir imkoniyatdan oqilona foydalanmog‘i lozim.”* Bugungi kunda esa internet ilm olishning eng qulay va tezkor vositasiga aylangan. Talabalar turli ilmiy maqolalar, elektron kitoblar va virtual kurslar orqali bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Biroq, **Forobiy** ta’kidlaganidek, har bir vosita inson uchun foydali yoki zararli bo‘lishi mumkin – bu undan qanday foydalanishga bog‘liq.

Internetdan foydalanish talabalar uchun ilm olish va akademik muvaffaqiyatga erishish yo‘lida kuchli vosita bo‘lsa-da, uning salbiy tomonlari ham bor. **Mirzo Ulug‘bek** ilm-fan taraqqiyotining asosi sifatida intizom va mantiqiy fikrlashni olg‘a surgan. Bugungi kunda esa internetdan noto‘g‘ri foydalanish talabalarning diqqatini chalg‘itishi, vaqtni samarasiz o‘tkazishga olib kelishi va hatto ilmiy natijalariga ham putur yetkazishi mumkin. Shu bilan birga, haddan tashqari ko‘p foydalanish, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, ma‘lumotlar ishonchliligi muammosi, sog‘liqqa zarar, vaqtning samarasiz ketishi kabi tahdidlar ham mavjud. Ushbu maqola orqali talabalar uchun internetning ijobiy va salbiy jihatlari chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, foydali va zararli odatlarning tahlili, dolzarb statistikalar, amaliy takliflar va muammoni bartaraf etish yo‘llari ham yoritiladi.

Tadqiqot Metadaologiyasi

Talabalar orasida internetdan foydalanish odatlari turlicha. Ba'zi talabalar internetni o'quv jarayonida qo'shimcha ma'lumot olish, til o'rganish va ilmiy izlanishlar uchun samarali foydalanadilar. Biroq, boshqalar internetni ko'ngilochar maqsadlarda, ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o'tkazish yoki o'yinlar o'ynash uchun ishlatadilar. Bu esa ularning o'qish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Hamda ularning maqsadlariga erishish yo'lida bir qancha to'sqinliklarga olib kelishi ham tabiiy. Xo'sh internetdan ham oqilona foydalansa bo'ladimi? Bu savolga albatta ha deb javob berardim. Negaki internet texnologiyalari ta'lim jarayonida keng qo'llanilib, talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, masofaviy ta'lim orqali talabalar istalgan joyda va vaqtda bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'taradi va vaqt hamda mablag' sarfini kamaytiradi. Internetdan samarali foydalanish talabalarning akademik natijalarini yaxshilashi mumkin. Masalan, internet orqali qo'shimcha ma'lumotlar olish, kerakli adabiyotlarni qidirib topish va yangi axborotlardan xabardor bo'lish talabalarning bilim darajasini oshiradi. Biroq, internetdan noto'g'ri foydalanish, ya'ni ko'p vaqtni ijtimoiy tarmoqlarda yoki boshqa chalg'ituvchi faoliyatlarda o'tkazish, o'qish samaradorligini pasaytirishi mumkin. Undan tashqari talabalar orasida internetdan foydalanish madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Internetdan to'g'ri va o'rinli foydalanish, ya'ni kerakli ma'lumotlarni izlash, ilmiy tadqiqotlar olib borish va o'z-o'zini rivojlantirish uchun foydalanish talabalarning akademik natijalarini yaxshilaydi. Buning uchun talabalarga internetdan foydalanish bo'yicha tegishli ko'nikmalarni o'rgatish zarur.

Men o'zim o'qiydigan oliygoxda bir qiziqarli so'rovnomaga o'tqazdim. Ya'ni bu so'rovnomaga asosan 1-bosqich talabalari o'rtasida kechdi. So'rovnomaga natijalari juda ham qiziqarli bo'ldi ya'ni unda quydagicha savollar keltirilgan edi.

1. Siz kuniga o‘rtacha necha soat internetdan foydalanasiz?
2. Internet sizning o‘qishingizga qanday ta‘sir ko‘rsatadi?
3. Siz ilmiy ma‘lumotlarni asosan qayerdan izlaysiz?
4. Internetda vaqtni ko‘proq nimaga sarflaysiz?
5. Siz uchun internetning eng katta foydasi nima?
6. Siz qanday takliflar bilan chiqasizki, talabalar internetdan samarali foydalansin?

Shu kabi savollar berildi, talabalar bunga ochiq o‘zlarining fikrlari va natijalarini aytib o‘tdilar. So‘rovnoma natijasida ma’lum bo‘ldiki: 18–24 yoshdagi talaba yoshlar kuniga o‘rtacha 5 soat 23 daqiqa internetda vaqt o‘tkazar ekan. Bundan ko‘rinib turibdiki bu juda ham katta raqamlar hisoblanadi. Undan tashqari talabalar o‘rtasida eng ko‘p foydalaniladigan platformalar:

1. Telegram - 92%
2. Instagram - 80%
3. YouTube - 74%
4. TikTok - 38%
5. Facebook - 35%

Ko‘plab so‘rovnomalar shuni ko‘rsatadiki, talabalarning internetdagi vaqtining 40-50 foizi befoйда kontentlarga sarflanadi — bu esa nafaqat o‘qish sifatiga, balki psixologik va jismoniy holatga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shunday ekan, muammo nafaqat internetdan foydalanishda, balki undan ongli foydalanish madaniyatini shakllantirishda bo‘layapti.

Keling ushbu jadvalda sizlar bilan birgalikda internetning foydali va zararli odatlarini ko‘rib chiqamiz.

/R	Foydali	/R	Zararli
.	<i>O‘quv resurslaridan foydalanish</i> — Internet orqali talabalar dunyoning eng ilg‘or universitetlari va ta’lim muassasalarida darslarini bepul tinglay olishadi.	.	<i>Ijtimoiy tarmoqlarda ko‘p vaqt o‘tkazish</i> — Instagram, TikTok kabi tarmoqlarda maqsadsiz vaqtlarda diqqatni chalg‘itadi, vaqtni o‘g‘irlyadi va hayot sifati pasayishiga olib keladi.
.	<i>Chet tillarini o‘rganish</i> — Talabalar turli saytlarda interaktiv usulda tillarni o‘rganmoqda. Bu esa xalqaro tanlovlarda, grantlarda ishtirok etish imkonini oshiradi.	.	<i>Uyqusizlik va surunkali charchoq</i> — Kechqurun internetdan foydalanish uyqu rejimini buzadi, bu esa salomatlik va o‘quv unumdorligiga salbiy ta’sir qiladi.
.	<i>IT va texnik ko‘nikmalarni rivojlantirish</i> — juda ham ko‘plab platformalar orqali dasturlash, dizayn va sun‘iy intellekt bo‘yicha bilim olish mumkin.	.	<i>Internetga qaramlik</i> — Doimiy internetga ulanmaganlik hissi asabiylik, depressiya, yolg‘izlik kabi ruhiy muammolarni keltirib chiqaradi. Bunday holat raqamli qaramlik ham deb ataladi.
.	<i>Ilmiy izlanishlar olib borish</i> — Internetdagi ilmiy platformalarda	.	<i>Foydasiz kontentlarga berilish</i> — Mish-mish, asossiz yangiliklar,

	maqolalar, statistikalarni topish, ularni tahlil qilish va bibliografiya tuzish imkoniyati mavjud.		inson tafakkurini yengillashtirib, tanqidiy fikrlash qobiliyatini pasaytiradi.
	Konferensiyalarda qatnashish — Zoom platformalari orqali dunyo miqyosida o‘tkazilayotgan ilmiy anjumanlar va konferensiyalarda ishtirok etish imkoniyati mavjud.		Birovlarning bilimlarini va materiallariga moyillik — Internetdagi tayyor materiallarni ko‘chirib olish odati o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va yozish qobiliyatini so‘ndiradi, ilmiy halolikka zarar yetkazadi.
	Talabalar o‘rtasida tarmoq va tajriba almashuvi - Facebook, Telegram kabi guruhlarda boshqa talabalardan maslahatlar olishligi mumkin ya’ni ixtirolar va ilmiy loyhalar shunga o‘xshash bir qancha foydali maslahatlar.		Soxta axborotlarga ishonish — Tekshirilmagan, noto‘g‘ri ma’lumotlar ijtimoiy ongi va qaror qabul qilish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Internetning talabalarning akademik natijalariga ta’siri ikki qirrali: u ilmiy izlanishlar, axborotga erkin kirish va zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish imkoniyatlarini oshiradi, shu bilan birga diqqatni chalg‘ituvchi omillar, noto‘g‘ri ma’lumotlar va soxta axborotlar xavfi kabi salbiy tomonlarga ega. Shunday ekan, internet resurslaridan oqilona foydalanish, ma’lumotlarni tanlab olish va vaqtni samarali boshqarish orqali talabalar akademik natijalarini sezilarli darajada yaxshilashlari yoki aksincha o‘z akademik natijalariga putir yetqazishlari mumkin bo‘ladi. Tanlov har doimgidek insonning o‘ziga bog‘liq.

Shu kabi muammolarni oldini olish bo‘yicha o‘zinning qolaversa talabalarning o‘z tavsiyalar quyidagilardan iborat. Internetdan foydalanish uchun kunlik limitlar masalan, 2 soat ta’lim uchun, 1 soat dam olish uchun kabi o‘ziga maqsad qo‘yib olsalar juda ham yaxshi natijalarga olib keladi va internetga qaramlik shaklini yo‘qotib ko‘proq tashqi muhit bilan muloqotlar yuzaga keladi va o‘zining odatlarini ham rivojlantirib o‘z ustida ishlashiga olib kelad.

Telefon va kompyuterda keraksiz ilovalarni bloklash, foydali ilovalarga ustuvorlik berish kerak. Haqiqatdan ham smartfonlar va shu kabi qurilmalardan foydalanayotganimizda vaqtimizni unumli o‘tqazmoqchi bo‘lsak ilovalarga ko‘p vaqt sarflayotgan bo‘lsak uni oldini olishni bitta-yu bitta yo‘li bu ilovalarni cheklash rejimidir. Bu usuldan foydalangan insonlar fikri shuni ko‘rsatadiki: avvallari vaqtimni to‘g‘ri taqsimlay olmas, ko‘p vaqtimni bemani, keraksiz videolar tomosha qilardim yoki turli o‘yinlar o‘ynar edim endi bo‘lsa ilovalarni cheklash orqali ham vaqtimni, ham qilmoqchi bo‘layotgan ishlarimni, barchasiga ulgurmoqdaman deya ta’kidlashmoqda.

Har oy raqamli faoliyatni tahlil qilish va foydasiz odatlarni yo‘qotish strategiyasini ishlab chiqish lozim. Bu ham ayniqsa talaba yoshlarga juda katta ta‘siri bor, negaki siz shu oyda qaysi ijtimoiy tarmoq, yoki ilovadan ko‘proq foydalangan bo‘lsangiz kelsi oyga shu ilovani kamroq foydalanishga qaratib, nazorat ostiga oladigan bo‘lsangiz sizning ish samaradorligingiz, ham o‘qish samaradorligingiz ham sezilarli darajada yuqorilaydi va akademik natijalaringiz yaxshilanadi. Haftada bir kunni raqamli dam olish kuni sifatida belgilash foydali bo‘ladi va miyya faoliyati uchun ham yaxshilanadi. Mehnat unumdorligingiz oshishiga olib keladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, internet zamonaviy talaba hayotining ajralmas qismiga aylangan. To‘g‘ri va maqsadli foydalanilsa, u ilm-fan, texnologiya, til o‘rganish, ijodkorlik, tadbirkorlik va global fikrlash imkoniyatlarini yaratadi. Ammo nazoratsiz va behuda sarflangan internet vaqti, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarga haddan ortiq qaramlik, sog‘liq muammolari, ta‘lim sifatining pasayishi, ruhiy tushkunlik va yolg‘on axborotlarga ishonish kabi jiddiy tahdidlarni keltirib chiqarmoqda. Har bir talaba shuni chuqur anglab yetishi kerakki, internet — bu kuchli qurol, ammo uni qanday ishlatish har kimning o‘z ixtiyorida. Uni bilimga, rivojlanishga va kelajak sari harakatga yo‘naltirish yoshlarning eng muhim vazifasidir. Shu sababli internetdan foydalanishda raqamli madaniyat, vaqtni rejalashtirish, axborotga tanqidiy yondashuv, ruhiy va jismoniy salomatlikni muhofaza qilish kabi jihatlarga e‘tibor qaratilishi lozim. Kelajakda bilimli, ongli va global fikrlovchi avlodni shakllantirishda internet vositasidan to‘g‘ri foydalanish asosiy omillardan biri bo‘lib qoladi. Bu yo‘lda davlat siyosati, oliy ta‘lim muassasalari va oila bilan birga, har bir talabani ongli pozitsiyasi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Undan to‘g‘ri foydalanish akademik yutuqlarga olib kelishi mumkin bo‘lsa, noto‘g‘ri foydalanish natijalarning pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli, talabalar orasida internetdan foydalanish madaniyatini rivojlantirish muhimdir. Talabalarga internetdan samarali foydalanish strategiyalarini o‘rgatish, vaqtni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish va akademik halollik tamoyillariga rioya qilish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Y.Mamatov, S.Sulaymonova. O‘zbekiston mediata‘lim taraqqiyot yo‘lida. O‘quv qo‘llanma. Extremum-press, 2015-94.b
- 2.Yahyo, Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya.Yordamchi o‘quv qo‘llanma.Movarounnaxr, 2016. -672
- 3.Laziz BO‘RONOV, O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi tinglovchisi.
- 4.Ta'lim jarayonida internetdan foydalanish madaniyatini rivojlantirish.
- 5.O‘zME. Birinchi jild. Toshkent
- 6.Internetdan samarali foydalanish davr talabi.